

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR

# JOCAA

VOLUME I, ISSUE 9

МАДАНИЈАТ ВА САНЏАТ

# JOURNAL OF CULTURE AND ART

КУЛТУРА И ИСКУССТВО

NOVEMBER

2023



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 9-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-9

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-9

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 9 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-9>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал  
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим  
Козимович

Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни  
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус  
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих  
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов  
Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз  
Турабович

Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна  
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси  
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани  
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”  
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта  
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-  
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил  
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий  
Оринбаевич

Зиявутдинова Зулфия  
Усеиновна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”  
медали соҳиби, профессор в.в.б

Раимова Дилфузахон  
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола  
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**ODINAYEVA Xojiniso Shuxrat qizi***Termiz davlat universiteti**4-bosqich talabasi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10205700>

## АҲОЛИНИ МАДАНИЯТ MARKAZLARIGA JALB ETISHDA МАДАНИЯТ ХОДИМЛАРИНИНГ ҲАМДА ТАРГ'ИБОТ-ТАШВИҚОТ ИШЛАРИНИНГ РОЛИ

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniyat muassasalariga, shu jumladan, madaniyat markazlariga aholining tashrifini oshirishda madaniyat xodimlari, san'atkorlar amalga oshirishi kerak bo'ladigan ishlar va kitobxonlik, konkurslar, hunarmandchilik hamda hunarmandchilik buyumlarining targ'ibi vositasida jalb etish to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat muassasalari, madaniyat markazlari, madaniyat xodimlari, san'atkorlar, targ'ibot-tashviqot.

## РОЛЬ РАБОТНИКОВ КУЛЬТУРЫ И ПРОПАГАНДИСТСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ПРИВЛЕЧЕНИИ НАСЕЛЕНИЯ В КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕНТРЫ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о работе, которую предстоит провести деятелям культуры и деятелям искусства в целях увеличения посещаемости населением учреждений культуры, в том числе культурных центров, и привлечения их через пропаганду чтения, конкурсов, ремесла и ремесла.

**Ключевые слова:** учреждения культуры, культурные центры, работники культуры, деятели искусства, пропаганда.

## THE ROLE OF CULTURAL WORKERS AND PROMOTION ACTIVITIES IN ATTRACTING THE POPULATION TO CULTURAL CENTERS

### ANNOTATION

In this article, there is a word about the work to be done by cultural workers and artists in order to increase the visit of the population to cultural institutions, including cultural centers, and to attract them through the promotion of reading, contests, handicrafts and handicrafts held.

**Key words:** cultural institutions, cultural centers, cultural workers, artists, propaganda.

Bugungi rang-barang turmushimizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'zaro bog'liklik bilan namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa tobora rivojlanib, jadallashayotgan zamonda ma'naviy ehtiyojlarga talab katta. Mazkur talablarni qondirish maqsadida ko'plab qulayliklar amalga oshirildi. Kutubxonalar, teatrlar, muzeylar, istirohat bog'lari, san'at saroylari va madaniyat markazlari faoliyati tubdan isloh qilindi. Avval mavjud bo'lganlari esa yangicha qiyofa kasb etdi.

*Yurtimizda madaniyat muassasalarida olib borilayotgan islohatlar...*

Ma'lumki, madaniyat markazlari ishi hozirda keng jamoatchilikning muhokamalari ostida bo'lib kelyapti. Bu maskanning aholiga taqdim etayotgan afzalliklari va xizmatlarini chuqur tahlil etish, tubdan modernizatsiyalash asosida hukumatimiz tomonidan turli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularning ijrosini ta'minlash bo'sidan turli kompleks chora-tadbirlar, yangiliklar, dasturlar ishlab chiqildi.

So'zimizning isboti o'laroq, 2019-yil 30-mart kuni qabul qilingan «madaniyat markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari» to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining 263-sonli qarori doirasida hozirgi kunda o'z faoliyatlarini olib borayotgan bir necha madaniyat markazlari binolarini qaytadan rekonstruksiya qilish, qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini yo'lga qo'yish, madaniyat markazlari ro'yxatida turgan to'garaklar, teatr-studiyalar, badiiy havaskorlik jamolari uchun barcha turdagi kerakli shart-sharoitlarni tadbir etish masalalari mutasaddi vakillarning zimmasiga yuklatildi.

Qolaversa, madaniyat markazlari qoshida yangi to'garaklar, teatr-studiyalar salmog'i va soni kengaydi. Madaniyat sohasida tahsil olayotgan talabalar, malakali soha o'qituvchilari tomonidan madaniyat markazlariga keng ommani jalb etish bo'yicha bir necha takliflar, ilmiy asoslar, ilmiy maqolalar ishlab chiqildi. Muxtasar qilib aytganda, yurtimizda madaniyat muassasalariga hamda madaniyat sohasiga ilmiy yondashish tobora ortib bormoqda.

Madaniyat muassasalarida jadal islohotlar amalga oshirilayotganligi kishini quvontirsa, tanganing ikkinchi tomoni bo'lgani kabi, ushbu muassasalarda, ayniqsa, madaniyat markazlarida aholining qamrovi, tashrif buyuruvchilarning soni hali hamon pastligicha qolayotgani biroz o'yga toldirmay qo'ymaydi. Bu muammoning asl ildizlari bir nechta sabablarni o'z ichiga oladi.

Avvalo, madaniyat va san'at tizimi uchun qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ularda nazarda tutilgandek to'liq amalga oshirilmayotgani, barchaga ma'lum. Tegishli mutasaddilarning soha islohotlariga chuqur yondashmayotgani va qarorlarni amaliyotga tadbir etishda sustkashlik ko'rsatilayotgani ayni haqiqatdir. Qolaversa, respublikamizning ayrim madaniyat muassasalarida soha bo'yicha tahsil olmagan, mutlaqo o'zga mutaxassisliklarini tamomlagan xodimlarning ish yuritayotgani ham tajriba, bilim yetishmasligidan darakdir. Shu o'rinda Rahima Yusupovaning «madaniyat markazlari ishi» nomli o'quv qo'llanmasidagi quyidagi fikrlari yuqoridagi fikrimizga ayni muddao bo'ladi:

“Madaniyat markazlarida aholining bo'sh vaqtini sermazmun, ma'rifatli tarzda o'tkazishning birinchi sharti, markaz xodimlarining zamonaviy bilimlarni egallagan bo'lishlarini, markazga keluvchilarning vaqtlarini imkoniyatlarini hisobga olish borasidagi faoliyatlarida ko'rinadi” [1].

Eng avvalo madaniyat markazlari xodimlarining malakalarini oshirish, zamon talablariga mos bo'lgan bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Endi o'ylab ko'raylikchi, qonun va qarorlar chiqarilsa-yu, qog'ozlarda qolib ketsa, xodimlar o'z mutaxassisligiga yot bo'lgan sohada kasb yuritsa, hozir bizning diqqat markazimizda turgan madaniyat markazlari faoliyatida yuksalish bo'ladimi? Shak-shubhasiz, o'sish kuzatilmaydi. Boz ustiga texnika, texnologiya, internet, ijtimoiy tarmoqlar ommalashib ketgan zamonda kishilarning madaniy xordig'i ham uyali aloqa vositalari bilan bo'lib qoldi. Bu ham madaniyat markazlariga tashrif buyuruvchilarning qisqarib ketishiga sababchi bo'layotgan omillardan biridir [2].

Birinchi navbatda, madaniyat maskanlariga, shu jumladan, madaniyat markazlariga aholini jalb etish uchun poydevorni mustahkam quyish, ya'ni islohotlar, normativ-huquqiy hujjatlar ijrosiga chuqur yondashish, oxirigacha amalga oshirish, mazkur muassasalarda faoliyat olib borayotgan ishchi xodimlarning soha mutaxassisligi bo'yicha qabul qilinishi darkor. Shundan so'ng, pishiq qilib quyilgan poydevorga g'ishtlarni birin-ketin qo'yib borsa bo'ladi.

*Aholini madaniyat markazlariga jalb etish chora tadbirlari*

Aholini madaniyat markazlariga jalb etishda madaniyat xodimlarining roli asosiy o'rin egallaydi. Ularning ijodi orqali xalq qiziqish bildirib, san'atidan bahramand bo'lish maqsadida madaniyat markazlariga o'tlanadilar. Buning uchun elimiz ardog'idagi, xalqqa ma'lum va mashhur xonandalar, xalq artistlari ishtirokida yilda 1 yoki 2 marta, bayramlarda madaniyat markazlari hududida tekin konsertlar uyushtirilishi, poytaxtdagi teatrning taniqli aktyor va aktrisalari tomonidan 1 yilda 1 yoki 2 marta spektakllar ijro etilishi, san'atga qiziquvchi yoshlarni uyushtirish uchun madaniyat markazlarida poytaxtdan tashrif buyurgan, o'z sohalarining ustasi bo'lgan san'atkorlar bilan davra suhbatlari uyushtirilib borilishi kerak [3].

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, madaniyat markazlarida, o'sha hududda madaniyat xodimlari, san'atkor xodimlari tomonidan faqatgina bayramlarda emas, balki odatiy kunlarda, 1 haftda 1 marotaba ko'ngilochar konsertlar uyushtirilib turilsa ham maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Aholini madaniyat markazlariga jalb etishda targ'ibot-tashviqot ishlarining o'rni ham muhim omil bo'laoladi. Keng omma, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitobxonlik, turli xil hunarlarni targ'ib etish, konkurslar uyushtirish orqali madaniyat markazlariga jalb etish nur ustiga a'lo nur bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz. Yutuqli tanlovlar hammaga birdek manzur bo'lishini inobatga olgan holda, bir necha shartlardan iborat, qiziqarli, ko'ngilochar konkurslar tashkillashtirish lozim.

Masalan turli sohalar, fanlar bo'yicha savol-javoblar, zakovat intellektual o'yinlari, debat muzokara bahslari, kitoblar, shu jumladan, badiiy asarlardan savol-javoblar shaklidagi tanlovlar shular sirasiga kiradi. Bu bilan ham aholini jalb etish ishlarini, ham ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni tarannum etgan bo'lamiz.

Qolaversa, madaniyat markazlari hududida kitoblar, san'at namunalari, qo'l mehnati, hunarmandlar ko'rgazmalarini tashkil etish kishilarning madaniyat markazlariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Bu kabi ko'rgazmalarni yo'lga qo'yish tashrif buyuruvchilarda hunar egallashga, qo'l mehnati buyumlariga bo'lgan qiziqishi uyg'onishga va keyingi safar ham madaniyat markazlariga kelishiga turtki bo'ladi.

Tadqiqotlar bo'yicha xulosa shuni ko'rsatdiki, madaniyat muassasalari, shuningdek, madaniyat markazlari aholining doimiy tashrif buyuradigan, madaniy xordiq chiqaradigan maskaniga aylanishi uchun madaniyat tizimi mutasaddilari, madaniyat xodimlari bo'lmish san'atkorlar, xonanda-yu sozandalar, aktyorlar, soha mutaxassislari hamda targ'ibot-tashviqot ishlari muhim ahamiyatga egadir.

### ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Rahima Yusupovaning “Madaniyat markazlari ishi” nomli o’quv qo’llanma
2. U. Qoraboyev madaniyat masalalari. O’quv qo’llanma. T “oqituvchi” 2008
3. Orinov S.K. Boboqulov.S.” Madaniyat va san’at boshqaruvining bugungi kundagi ahamiyati”// Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. -2022.-C.78-82

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 9-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-9

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-9

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)